FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 10 - sentabr 363-11-168-Q/22 Marg‘ilon shahar hokimligi

LOYIHA

Marg‘ilon shahridagi ayrim ko‘chalardagi avtotransport vositalari harakatini tartibga solish, haydovchilar, yo‘lovchilar va boshqa fuqarolar xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

Shahardagi savdo komplekslari atrofida fuqarolar hamda avtomototransport vositalarining harakatlanishining tobora oshib borayotganligi sababli avtomashinalarini yo‘l bo‘yida qoldirilishi, turli tartibsizliklar hamda inson sog‘ligiga xavf yetkazishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzaga kelish holatlari ortib bormoqda.

Natijada ushbu hududlarda avtomobillar va yo‘lovchilar harakati xavfsizligini ta’minlash bo’yicha ko’plab murojaatlar kelib tushmoqda.

Mazkur hududlarda yo‘l harakati va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda tinchlik-barqarorlikni ta’minlash maqsadida Marg‘ilon shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i kapitan R.Akbarovning murojaatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni *(10.04.2013 yildagi O‘RQ-348-son, qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda)*, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasi *(02.10.2007 yildagi O‘RQ-117-son, qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 40-son, 410-modda)*, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalari *(02.09.1993 yildagi 913-XII-son, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda)*, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l

harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori *(12.04.2022 yildagi 172-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y., 09/22/172/0298-son)*ga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Marg‘ilon shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i kapitan R.Akbarovning murojaatlari qanoatlantirilsin.

2. Quyidagi:

- Marg‘ilon shahar B.Marg‘iloniy ko‘chasidan Temir yo‘l ko‘chasi (“Ipakchi fayz tongi” savdo kompleksi tomon)ga kirish qismiga 3.19 “Qayrilish taqiqlangan” va 4.1.1 “Harakatlanish to‘g‘riga” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- Temir yo‘l ko‘chasi (Toshloq tumani tomonidan kirish qismi)ga 3.1 “Kirish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Shahar Ichki ishlari bo‘limi (A.Ashurov), shahar IIB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (R.Akbarov)larga ushbu hududlarda yo‘lovchilar va transport vositalari harakat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish vazifalari topshirilsin.

4. Marg‘ilon Yo‘llardan foydalanish tarmog‘i (N.G‘ulomov) belgilangan tartibda buyuruvchi va taqiqlovchi yo‘l belgilarini o‘rnatilganligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e'lon qilingandan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari v.b S.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Хокима города Маргилан **A.Ziyavitdinov**